




A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE NOVELS “تهران مخوف” (“THE TERRIFYING TEHRAN”) AND “KECHA VA KUNDUZ”

Safarmatova Orzigul

4th-year student of the Persian-English group
Higher School of Iranian and Afghan Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: orzigulsafar@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

O. Turdiyeva

Doctor of Philological Sciences
Associate Professor at the Higher School of Iranian and Afghan Studies
TSUOS
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: novel writing, Mushfiq Kozimiy, "The Terrifying Tehran," Abdulhamid Cho'lpon, "Night and Day," Iran, Central Asia, socio-political life.

Received: 28.04.25

Accepted: 10.05.25

Published: 14.05.25

Abstract: In modern Iranian literature, the first social novel by the author Mushfiq Kozimiy, "تهران مخوف" ("The Terrifying Tehran"), stands out with its unique theme and artistic-aesthetic characteristics. This article presents a comparative analysis of this novel with Abdulhamid Cho'lpon's "Kecha va Kunduz" (Night and Day), a prominent work of Jadid literature.

“تهران مخوف” (“QO‘RQINCHLI TEHRON”) VA “KECHA VA KUNDUZ” ROMANLARINING QIYOSIY TAHLILI

Orzigul Safarmatova

4-kurs fors-ingliz guruhi talabasi
“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
E-mail: orzigulsafar@gmail.com

O. Turdiyeva

filologiya fanlari doktori
“Eronshunoslik va afg‘onshunoslik” oliy maktabi dotsenti
TDSHU
Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit soʻzlar: romannavislik, Mushfiq Kozimiy, “Qoʻrqinchli Tehron”, Abdulhamid Choʻlpon, “Kecha va Kunduz”, Eron, Oʻrta Osiyo, ijtimoiy-siyosiy hayot.

Annotatsiya: Zamonaviy Eron adabiyotida ilk ijtimoiy roman muallifi Mushfiq Kozimiyning “تهران مخوف” (“Qoʻrqinchli Tehron”) romani oʻziga xos mavzusi va badiiy-estetik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Maqolada ushbu romanni jadid adabiyotining yorqin namoyandasi Abdulhamid Choʻlponning “Kecha va kunduz” romani bilan qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

СПРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РОМАНОВ “تهران مخوف” (“УЖАСНЫЙ ТЕГЕРАН”) И “КЕЧА ВА КУНДУЗ”

Орзигул Сафарматова

Студентка 4-го курса группы персидского и английского языков

Высшая школа иранистики и афганистики

Ташкентский государственный университет востоковедения

Email: orzigulsafar@gmail.com

О. Турдиева

доктор филологических наук

доцент Высшей школы иранистики и афганистики

ТГУВ

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: написание романов, Мушфига Козимий, "Ужасный Тегеран", Абдулхамид Чулпон, "Ночь и день", Иран, Центральная Азия, социально-политическая жизнь.

Аннотация: В современной иранской литературе первый социальный роман автора Мушфига Козимия "تهران مخوف" ("Ужасный Тегеран") выделяется своей уникальной темой и художественно-эстетическими особенностями. В статье проводится сравнительный анализ этого романа с романом Абдулхамиды Чулпона "Kecha va Kunduz" (Ночь и день), ярким произведением джадидской литературы.

Tarixdan maʼlumki, XX asr boshlari Eronda adabiyot ustidan hukumat senzurasining kuchayishi bilan xarakterlanadi. Xususan, tarixiy voqelik va real shaxslarni badiiy asarlarda tasvirlash taʼqiqlandi. Natijada, yozuvchilar ijtimoiy va maishiy hayot, adolatsizlikni qoralashga eʼtibor qaratib, xoʻrlangan ayollar va vayron boʻlgan shaharlarni yetakchi mavzularga aylantirdilar. Mushfiq Kozimiyning “Qoʻrqinchli Tehron” romani buning yorqin misolidir.

Mashhur fors yozuvchisi boʻlmish Murtazo Mushfiq Kozimiy (1887 – 1978) zamonaviy fors adabiyotida ilk ijtimoiy roman muallifi, realizm janrida ijod qilgan yozuvchilardan biri hisoblanadi. Yozuvchi dastlab, 1924-yilda Berlinda nashr qilingan “ایران شهر” jurnalining nashriyotida ishlagan, keyinchalik “ایران جوان” (“Yosh Eron”) jurnali tahririyatida faoliyatini davom ettirgan. Shu yerda adib oʻzining fransuz tilidan fors tiliga tarjima qilgan asarlarini chop ettirgan. Uning eng mashhur asari

“Qo‘rqinchli Tehron” romanidir. Roman ikki qismdan tashkil topgan bo‘lib, birinchi qismi 1921-yilda Tehronda “ستاره ايران” (“Eron yulduzi”) gazetasida, ikkinchi qismi esa 1924-yilda Berlinda chop etilgan. 1934–1936 va 1960-yillarda rus tiliga tarjima qilingan.

Mazkur roman fors adabiyotidagi ilk ijtimoiy roman hisoblanib, XX asrning 20-yillaridagi Eron jamiyati hayotining turli jihatlarini, jumladan, fasod, buzuvchilik, ijtimoiy himoyasizlik, ayollarning toptalgan huquqlarini ochib berish bilan birga, Konstitutsiyaviy inqilobning muvaffaqiyatsizligi natijasida yuzaga kelgan ommaviy umidsizlikni bayon qiladi. Kozimiy o‘z romanida til xususiyatlariga e‘tibor qaratgan, ravon, tushunarli va go‘zal tilda yozish orqali jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni dramatik syujet doirasida ko‘rsatishga harakat qilgan. Uning ijodga bo‘lgan jiddiy yondashuvi keyingi avlod adabiyot namoyandalari ijodiga katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Roman Qojarlar saroyi amaldorining o‘g‘li bo‘lmish Farrux ismli yigit hayotidan hikoya qiladi. U ammasining qizi Mahinga oshiq bo‘lgan va sevgisiga yetishish yo‘lida ko‘plab sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Hikoya ularning bir-birlariga bo‘lgan muhabbati atrofida kechadi. Mahinning otasi ta‘sirli odamlar bilan yashirin bitimlar orqali Majlisga, ya‘ni Eron parlamentiga kirishga harakat qiladi. Bu maqsadga erishish uchun u o‘z qizini boy xonadonning yagona farzandi Siyovushga turmushga chiqishga majburlaydi. Farrux qo‘l qovushtirib o‘tirmay, sevgilisi Mahinni Tehrondan Qum shahriga olib qochadi. Ertasi kuni Mahinning otasi politsiyachilar bilan kelib, qizini olib ketadi va Farruxni qamoqqa tashlaydi. Farrux qamoqdan qochib ketishga muvaffaq bo‘ladi, bir muddat qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi, so‘ngra Ashxobod va Bokuga sayohat qiladi, u yerda Rossiyadagi Oktabr inqilobidan ilhomlangan siyosiy faol eronliklar guruhiga qo‘shiladi hamda inqilob olovini Eronda ham yoyishga harakat qiladi. Biroq, inqilobchilar o‘rtasida kelib chiqqan ziddiyatdan hafsalasi pir bo‘lib, inqilobchilarning dushmanlariga qo‘shiladi. U harbiy to‘ntarishda ishtirok etadi va bu oxir-oqibat Qojarlar sulolasining tugatilishi hamda Pahlaviylar sulolasining asos solinishiga olib keladi. Biroq ijtimoiy hayot hamon o‘sha-o‘sha, Farrux esa orzu-umidlarining ro‘yobga chiqmaganidan, yangi rejimning o‘rnatilishiga qaramay, mamalakatda korrupsiya avj olib borayotganligi-yu, davlat tepasidagi siyosiy kuchlarga qarshi kurashish imkonsizligizdan hafsalasi pir bo‘ladi.

“Qo‘rqinchli Tehron” romani o‘z davrida ko‘plab kitobxonlarning shov-shuviga sabab bo‘lgan. Chunki yozuvchi yuqori qatlam vakillari o‘rtasidagi munosabatlar oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy illatlarni badiiy, ammo haqiqatga yaqin, real talqinini yarata oldi va o‘sha davr zamonaviy o‘rta sinf eronliklarining ijtimoiy hayotida oddiy hol bo‘lib qolgan fohishabozlik mavzusini ko‘tardi. Ayniqsa, Tehron fohishaxonalarining doimiy mijozlaridan biri - Siyovush obrazi tasviri va fohishalarning ayanchli holati, umuman olganda, ayollar duch kelgan adolatsizlik va zulm keng ommaning e‘tiborni jalb qildi. Ayollar mavzusi, xususan ular duch keladigan azob-uqubatlar masalasi tez orada o‘sha davrda yashab ijod qilgan ko‘plab yozuvchilarning ijtimoiy romanlarida,

jumladan, Muḥammad Hijoziy, Muḥammad Mas'ud, Jahongir Jaliliy va boshqalarning asarlarida sezila boshlandi. Bir tanqidchining ta'kidlashicha: "Kozimiy romanida mol-mulkidan mahrum etilgan, oliyjanob va g'arib yigitni sevib qolgan go'zal yosh qizdan tortib, ochko'z va beparvo otalarni tomonidan siquvga olingan, aldanib, xo'rlangan qizgacha bo'lgan barcha jabrlangan ayol arxetiplari tasvirlangan."

Kitobning ikkinchi qismi birinchisidek shov-shuvli bo'lmadi va kamroq muvaffaqiyat qozondi. Birinchi qismida oddiy xalqning azoblaridan qasos olish uchun kurashgan g'ayratli Farrux, romanning ikkinchi qismida najot va adolatning qayta tiklanishini kutayotgan passiv kuzatuvchiga aylanadi. Biroq, shunga qaramasdan, ikkinchi qism ham Eron ijtimoiy-siyosiy, madaniy va maishiy hayotining muhim bosqichini aks ettirdi va bunda ayollar mavqei asosiy nuqta bo'lib xizmat qildi.

Ma'lumki, adabiyot xalqlar o'rtasidagi muhim ko'prik sanaladi. U millat va madaniyatlar chegaralarini kesib o'tib, turli mamlakatdagi turli madaniyat, irq va turli dinga e'tiqod qiluvchi insonlarni qalban birlashtiradi. Bir millatning adabiyoti boshqa millatlarga insoniy his-tuyg'ularni, tajribalarni va hayotiy haqiqatlarni yetkazadi. Shuning uchun adabiyot orqali turli madaniyatlarga mansub insonlar bir-birini yaxshiroq tushunishadi, dildan yaqinlashadilar va bir butun bo'lib birlashadilar. "Qo'rqinchili Tehron" romanini o'qib, yuqoridagi fikrlarga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. "Qo'rqinchili Tehron" romani o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri, jadid adabiyotining yorqin namoyandasi Abdulhamid Cho'lponning butun xalqimiz ko'nglidan joy olgan "Kecha va kunduz" romani bilan o'xshash tomonlari ko'pligiga guvoh bo'lamiz. Ushbu ikki romandagi syujet va kompozitsiya o'xshash. Bunga sabab, ehtimol, yozuvchilarning bir davrda yashaganliklari hamda o'sha davrda Sharq, xususan Eron va Markaziy Osiyo o'lkalaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Cho'lponning adabiy faoliyati 1913-1914-yillar Andijonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida xabarlar yozish bilan boshlangan. U dastlab "Sadoi Turkiston" gazetasida "Turkistonli qardoshlarimizga" she'ri, "Qurboni jaholat", "Do'xtir Muhammadyor" hikoyalari va "Adabiyot nadir?", "Muhtaram Yozg'uvchilarimizga" maqolalarini e'lon qilib (1914), shu davr adabiyoti namoyandalari e'tiborini tortdi, tez orada ularning safidan o'rin egallagan. Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotganining asosiy sababini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatida ko'rgan Cho'lpon boshqa jadidlar qatori o'z asarlari bilan xalqning madaniy va ma'rifiy saviyasini ko'tarishga bel bog'ladi.

"Kecha va Kunduz" romani o'zbek adabiyotidagi ilk roman dilogiya bo'lib, "Qo'rqinchili Tehron" kabi ikki qismdan iborat. Birinchi qismi "Kecha" 1933-1934-yillarda Moskvada yozilgan. Dastlabki boblari 1935-yilda Toshkentdagi adabiy jurnalning 1-sonida bosilgan, asar 1936-yilda to'liq holda nashr etilgan. Ammo romanning ikkinchi qismi - "Kunduz" saqlanib qolmagan.

“Kecha va Kunduz” romanida xalq va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan barcha ziddiyatlar, adibning orzulari ifodalangan. Unda mehnatkash xalqning, xususan, xotin-qizlarning og‘ir kulfat-u, mashaqqatlarga to‘la hayoti jonli voqealar, yorqin obrazlar vositasida ta’sirli va ishonarli tasvirlangan. Asardagi asosiy ijobiy qahramonlardan biri bo‘lgan go‘zal va xushovoz, sodda va huquqsiz Zebi timsoli fikrimizni dalillaydi. Yozuvchi Zebi, Razzoq so‘fi va Qurbonbibi taqdirida butun bir xalqning davrga xos fojeali hayotini yaqqol ko‘rsatib bergan.

“Qo‘rqinchli Tehron” romanida Farrux, Mahin, Og‘oyi F. Ussaltana, Maliktoj xonim, Muhammad Taqi, Iffat asosiy qahramonlar bo‘lsalar, “Kecha va Kunduz” romanida ularga parallel ravishda Zebi, Razzoq so‘fi, Qurvonbibi, Akbarali mingboshi, Miryoqub, Mariya Ostrova, O‘lmasjon aravakash kabilar asosiy qahramonlar sifatida harakatlanadilar. Faqat Farrux romanda boshidan oxirigacha ishtirok etsa, Zebiga oshiq bo‘lgan O‘lmasjon aravakash bundan mustasno. Quyidagi jadvalda fors va o‘zbek romanidagi ayrim jihatlar qiyosiy tarzda ochib berilgan:

“Qo‘rqinchli Tehron” romanidagi obrazlar	Xarakterlari	“Kecha va Kunduz” romanidagi obrazlar	Xarakterlari	<u>O‘xshash jihatlar</u>
<i>Mahin</i>	O‘z haqqini talab qiladigan, vafodor, kurashuvchan	<i>Zebi</i>	Sodda, huquqsiz, kamtar	<u>Ikkisi ham qafasda saqlanayotgan qushdek asiralar</u>
<i>Og‘oyi F. Ussaltana</i>	Boyluk va hokimiyatga o‘ch	<i>Razzoq so‘fi</i>	Qovog‘idan qor yog‘gan, badjahl, oqibatsiz	<u>Boyluk ilinjida o‘z yaqinlaridan judo bo‘ladilar</u>
<i>Maliktoj xonim</i>	Huquqsiz, ilmsiz, qattiqqo‘l, itoatkor	<i>Qurvonbibi</i>	Jafokash, mehribon, ochiqko‘ngil	<u>O‘ta itoatkor ayollar</u>
<i>Siyovush</i>	Johil, xotinboz, axloqsiz	<i>Akbarali mingboshi</i>	Kibrli, shuhratparast, hudbin, axloqsiz	<u>O‘z nafsining qurbonlari</u>
<i>Muhammad Taqi</i>	Ayyor, uzoqni o‘ylab ish ko‘radi	<i>Miryoqub</i>	Ishbilarmon, ayyor	<u>Aql-zakovatlarini noto‘g‘ri yo‘lga sarflaydilar</u>
<i>Iffat</i>	Sodda, mehribon, ishonuvchan	<i>Mariya Ostrova</i>	Aqlli, o‘zini hurmat qiladi	<u>Bir oilaning erka farzandlari, xiyonat sabab yomon yo‘lga kirib qoladilar</u>

<i>Farrux</i>	Pok qalbli, o‘qimishli, sodda	<i>O‘lmasjon aravakash</i>	Diyonatli, insofli	<u>Pok va beozor qalb sohiblari</u>
---------------	-------------------------------------	--------------------------------	--------------------	---

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Mushfiq Kozimiyning “Qo‘rqinchili Tehron” va Abdulhamid Cho‘lponning “Kecha va kunduz” syujeti jihatidan qiyoslashga loyiq jihatlari ko‘p romanlar hisoblanadi. Bu holat asarlarning yozilish davri hamda ikki mamlakat – Eron va Turkistondagi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, adabiy hayotdagi o‘xshash vaziyatlar bilan ham bog‘liq. Bu ikki adib birlarining ijodidan bexabar bo‘lgan bo‘lsa-da, bunday yaqin syujetlarning tanlanishi zahirida chuqur sabablar mavjud. Romanlarning syujet, kompozitsiya, tugun, yechim, badiiy tasvir vositalari borasidagi qiyoslar alohida tadqiqotlarga manba bo‘lishiga shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мушфиқ Козимий. “Қўрқинчили Техрон”. Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2020.
2. Abdulhamid Cho‘lpon. “Kecha va kunduz”. Toshkent, “Ilm-ziyo-zakovat”, 2019.
3. Қозоқбой Йўлдош, Мухайё Йўлдош. “Бадий таҳлил асослари”, Тошкент, 2016.